

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOGLARINING
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOGIK
KREATIVLIGINING TAMOYILLARI**

Xudoyberdiyeva Feruza

JDPU magistranti

ANNOTATSIYA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni, ongni shakllantira olish uchun avvalo ushbu mutaxassisni tayyorlayotgan unga bilim berayotgan o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor shaxs bo'lishi zarur. Bordi-yu, uning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'lmasa, u holda qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga o'rgata oladi?

***Kalit so'zlar:** Muammoli xarakterga egalik, Ijodiy yo'naltirilganlik, Kreativlikning yorqin namoyon bo'lishi, tafakkur, individ, shaxs, Maktabgacha ta'lim tashkiloti, Individuallikka erishish, Ijodiy yo'naltirilganlik.*

АННОТАЦИЯ

Для того чтобы научить будущих воспитателей дошкольного образования мыслить творчески, сформировать у них творческое мышление, воспитатель должен прежде всего быть творческой личностью. Если у него нет творческих качеств, как он может побудить студентов к творческому мышлению?

***Ключевые слова:** Решение проблем, творческая направленность, креативность, творческая направленность, индивидуализация, творческая направленность.*

ANNOTATION

In order to teach future preschool educators to think creatively, to form creative thinking in them, the educator must first of all be a creative person. If he does not have creative qualities, how can he encourage students to think creatively?

Keywords: *Problem-solving, Creative Orientation, Creativity, Creative Orientation, Individualization, Creative orientation*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu – bo‘lajak maktabgacha ta’lim pedagogiklar va professor o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur..” deb ta’kidlab o‘tganlar. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim pedagoglarni kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor shaxs bo‘lishi zarur. Bordi-yu, uning o‘zi kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasa, u holda qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga rag‘batlantira oladi. Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lsagina, talabalar ham shunday bo‘la oladi. O‘qituvchining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki mashg‘ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur.

Pedagog kreativligining ustuvor tamoillari;

4. Muammoli xarakterga egalik
5. Imkoniyatni oshirib boorish
6. Ijodiy yo‘nalganlik
7. Individuallikka erishish
8. Bir butunlik, izchillik, tizimlilik

9. Kreativlikning yorqin namoyon bo'lishi

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi. Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogi kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ilg'or bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- hamkasblar bilan bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogining o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Odatda bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogining masala echimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogi o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. tarbiyachilar mashg'ulotlarda

talabalarning erkin fikr yuritishlarini ta'minlay olishlari kerak. Qancha ko'p g'oya va fikrlarni o'rta tashlasalar, shuncha ko'p g'oyalar kreativ bo'ladi. Talabalar "Aqliy hujum" metodidan foydalanganlarida noaniqlikka duch kelishlari mumkin. Talabalarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish va keyinchalik ularni mustaqil "sayohatga" qo'yib yuborish ularda kreativ va, hattoki noaniq bo'lsada, turli g'oyalarni o'ylab topishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi. Chak Djons aytganiday "Qo'rquv xissining yuzaga kelishi kreativlikka asoslangan har qanday ishda mavjud havotir kreativlikning xizmatkori hisoblanadi". Talabalarni yo'naltirish bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini o'qituvchiga bog'liq bo'lib qolmay, ularda avtomatik ravishda harakat qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Yuqori sinf talabalari yoki yuqori kurslarining malakali talabalari jarayonni kichik alohida qism va bosqichlarga bo'lib, yosh va tajribasiz talabalarni ruhlantirib, bu esa o'z o'rnida kreativlik ko'nikmasining shakllanishiga o'z ta'siri o'tkazadi.

XULOSA

Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi. Tarbiyachi maktabgacha yoshidagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang'ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy axloq, o'z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo'lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, haqiqatgo'ylik, adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalar mehnati natijalarini asrab-avaylash kabi axloqiy sifatlar tarbiyalaydi. Kreativ muhitda ta'lim olayotgan bo'lajak bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi shuningdek, kreativ tafakkurga ega o'qituvchini kuzatish natijasida kreativ fikrlashga

moyil bo'ladi. Kreativlik xarakteridagi o'quv-bilish muhiti bo'lajak bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarda ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasining rivojlanishiga olib keladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog -tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiyani asosan o'yin faoliyat orqali beradi. Tarbiyachi qanday faoliyatda bo'lmasin tarbiyalanuvchilar bilan bevosita munosabatda bo'lib, u yetakchi rolni o'ynaydi. Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogi o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj paydo bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: O'zbekiston. – 2017. -104 b.*
2. *Sh.M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston". 2017. – 488 b.*
3. *O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan. Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan.*
4. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni (07.02.2017-yil. PF-4947) Lex.uz.*
5. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori (20.04.2017-yil PQ-2909).*
6. *PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi (PISA 2021 Creative Thinking Framework (Third Draft))/ Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti/ Umumiy tahrir – U.Sharifxodjayev, D.Norboyeva / Tarjima – M. Maxsudov/ Xalq ta'limi vazirligi – Toshkent, 2020-yil, 76 bet.*

7. *Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.*

Internet manbalari

1. *Ziyonet.uz*
2. www.pedagog.uz
3. <http://bilig.academiascience.or>
4. www.google.uz